



JAZOLARNI IJRO ETUVCHI MUASSASALAR VA ORGANLAR TIZIMI VA ULARNING VAZIFALARI

Irnazarov Shuhrat

*TerDU Yuridik Fakulteti “Jinoyat huquqi va
Fuqarolik protsessi” kafedrası o‘qituvchisi*

O‘lmasov Zayniddin

Terdu Yuridik Fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoyat huquqi va jinoyat-ijroiya tizimida jazolarni ijro etuvchi muassasalar va organlarning o‘rni, tuzilishi hamda ularning asosiy vazifalarini yoritadi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida jazolarni ijro etish tizimining huquqiy asoslari, jazoni ijro etuvchi muassasalarning turlari — koloniyalar, tarbiya koloniyalari, Tergov hibsxonalari, probatsiya organlari, maxsus muassasalar va boshqa bo‘g‘inlar haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, ushbu organlarning jazo tayinlashdan ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishdagi roli, mahkumlarni tuzatish, tarbiyalash, ijtimoiy moslashtirish, xavfsizlikni ta’minlash, huquq va erkinliklarni himoya qilish bo‘yicha vazifalari batafsil bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Jazo ijrosi, jinoyat-ijroiya tizimi, koloniyalar, tergov hibsxonasi, probatsiya, jazoni ijro etuvchi muassasalar, mahkumlarni tuzatish, ijtimoiy rehabilitatsiya, xavfsizlik, tartib-intizom, inson huquqlari, tarbiya koloniyasi, maxsus muassasalar, jazo siyosati,

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng xalqaro huquqning to‘laqonli subyekti sifatida e’tirof etildi. Bugungi rivojlanish bosqichida mamlakatimizning asosiy vazifalari davlat suverenitetini yanada mustahkamlash, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi dolzarb masalalarni hal qilish hamda xalqimizni yorqin kelajak sari boshlab borishdan iborat bo‘lib



qolmoqda. Mustaqillik yillarida qisqa vaqt ichida respublikada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlarning samaradorligini oshirish esa puxta ishlab chiqilgan qonunlarni qabul qilish, fuqarolarning huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, jamiyatda huquqiy mafkurani mustahkamlash orqali yanada ta'minlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti ta'kidlaganidek, dastlabki tergov va surishtiruv jarayonida shaxsning protsessual huquqlarini himoya qilish, ularni ta'minlash ustidan sud nazoratini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli choralar ko'rildi. Jinoyat ishlarini sudda ko'rib chiqishda qonuniylik va adolat prinsiplarini mustahkamlovchi samarali mexanizmlar bosqichma-bosqich takomillashtirildi. Natijada "Xabeas korpus" institutining qo'llanish sohasi yanada kengaytirildi. Avval mazkur institut faqat qamoqqa olish bilan bog'liq protsessual majburlov choralariga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa, hozirda shaxsni lavozimidan chetlatish yoki tibbiy muassasaga joylashtirish ham sud sanksiyasiga asosan amalga oshiriladigan tartibga o'tkazildi. Bugungi kunda jinoyiy jazolarni ijro etish tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish davlat ichki siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, jinoyat-ijroiya siyosati nafaqat O'zbekistonda, balki qo'shni va boshqa davlatlarda ham eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jinoyiy jazolarni ijro etish tizimi haqida so'z yuritishdan avval, avvalo jazoning mohiyati, maqsadi hamda uning turlari haqida to'xtalib o'tish zarur. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 42-moddasida jazo tushunchasi va uning maqsadlari belgilab berilgan. Ushbu moddaga ko'ra, jazo — jinoyat sodir qilganlikda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan sud tomonidan davlat nomidan qo'llaniladigan, shaxsni qonunda belgilangan ayrim huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasi hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 43-moddasida jazo turlari belgilangan bo'lib, jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga bir qator asosiy jazolar qo'llanishi mumkinligi ko'rsatilgan. Ular quyidagilardan iborat:



jarima; muayyan huquqdan mahrum qilish; majburiy jamoat ishlari; axloq tuzatish ishlari; xizmat bo'yicha cheklash; ozodlikni cheklash; intizomiy qismga jo'natish; ozodlikdan mahrum qilish; umrbod ozodlikdan mahrum qilish.

Shuningdek, zarur hollarda mahkumga asosiy jazolardan tashqari qo'shimcha jazo turi sifatida harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish ham belgilanishi mumkin. Jinoyat kodeksining 81-moddasida esa voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan asosiy jazo turlari sanab o'tilgan. Mazkur moddaga ko'ra, o'n sakkiz yoshga to'lmagan jinoyatchilarga quyidagi jazolar tayinlanishi mumkin: jarima; majburiy jamoat ishlari; axloq tuzatish ishlari; ozodlikni cheklash; ozodlikdan mahrum qilish. Mazkur yosh toifasidagi shaxslarga qo'shimcha jazo turlarini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasida jazo ijro etish tizimi o'ziga xos faoliyat bo'lib, unda Jinoyat kodeksining 43-moddasida (voyaga yetmaganlarga nisbatan 81-moddada) ko'rsatilgan jazolarni amalda bajarish, mahkumlarga nisbatan davlatning majburlov choralarini tatbiq qilish hamda ularni axloqan tuzatish mexanizmlari amalga oshiriladi. Jinoiy jazolarni ijro etish turli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Jumladan:

1. jarima shaklidagi jazo O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan bajariladi (JIK 14-modda, 1-qism);

2. muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari va axloq tuzatish ishlari ichki ishlar organlari tomonidan ijro etiladi. Shuningdek, muayyan huquqdan mahrum qilishga oid sud qarori mahkum ishlayotgan tashkilot ma'muriyati yoki tegishli faoliyat turiga ruxsat beruvchi organlar tomonidan ham bajarilishi mumkin (JIK 14-modda, 2-qism);

3. ozodlikni cheklash jazosi esa ichki ishlar organlari yoki sud tomonidan belgilangan boshqa organ tomonidan ijro etiladi (JIK 14-modda, 2-qism).

Harbiy xizmatchilarga nisbatan esa:

1. xizmat bo'yicha cheklash jazosini harbiy xizmatchi xizmat o'tash joyidagi tegishli harbiy qism yoki muassasa qo'mondonligi tomonidan ijro etilishi belgilangan.



Intizomiy qismga yuborish tarzidagi jazo maxsus tashkil etilgan harbiy bo‘linmalar tomonidan amalga oshiriladi (JIK 14-modda, 3-qism).

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish ko‘rinishidagi qo‘shimcha jazo esa mazkur unvonni bergan tegishli davlat organi tomonidan ijro etiladi (JIK 14-modda, 4-qism).

ASOSIY QISM

Ozodlikdan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish kabi eng og‘ir jazo turlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi jazoni ijro etish muassasalari tomonidan bajariladi. Ushbu jarayonni boshqarish, rejalashtirish va nazorat qilish Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti zimmasiga yuklatilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qaroriga asosan ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish tizimi quyidagi tarkibiy bo‘g‘inlardan iborat etib belgilangan: Departament; hududiy muvofiqlashtirish markazlari; jazoni ijro etish koloniyalari ; tarbiya koloniyasi;tergov hibsxonalari; mahkumlar uchun ixtisoslashtirilgan kasalxona; tezkor harakatlar otryadi; markaziy omborxona. Departament jazoni ijro etish tizimining barcha bo‘linmalari uchun yagona boshqaruv markazi bo‘lib xizmat qiladi. Hududiy muvofiqlashtirish markazlari esa tergov hibsxonalari va jazoni ijro etish muassasalarining faoliyatini tashkil etish, ulardagi kunlik holat va jarayonlarni nazorat qilish, ularning samarali ishlashini ta’minlash vazifalarini bajaradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-martdagi “Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazolarni ijro etish muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirish”ga doir 128-son qarorining 1-ilovasida keltirilgan “Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazolarni ijro etish muassasalari to‘g‘risidagi nizom”ning 4-bobi muassasalar faoliyatining asosiy vazifalarini belgilab beradi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatga ko‘ra jazoni ijro etish muassasalari quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:



1. mahkumlarga tayinlangan jinoiy jazolarni amalda ijro etish;

2.muassasada xavfsizlikni ta'minlash, qo'riqlash xizmatini tashkil etish, mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlash;

3.ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarni jamiyatga qayta moslashuvga tayyorlash, ularga zarur ijtimoiy yordam ko'rsatish, maishiy ehtiyojlarini aniqlash va jazo muddati tugagach ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar olib borish;

4.muassasalar va ularga biriktirilgan davlat unitar korxonalarining ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini takomillashtirish, mahkumlarning mehnat bandligini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-martdagi 128-son qaroriga ilova sifatida tasdiqlangan "Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazolarni ijro etish muassasalari to'g'risidagi nizom"ning 5-bobida jazoni ijro etish muassasalariga berilgan bir qator huquqlar belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, mazkur muassasalar o'z faoliyatiga daxldor masalalar yuzasidan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimliklar va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning axborot bazalaridan zarur ma'lumotlarni olish huquqiga ega. Shuningdek, ular qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish bo'yicha takliflarni Jazo ijro etish departamentiga (JIED) kiritishi mumkin. Muassasalar tarbiyaviy va profilaktik tadbirlarga, shuningdek, mahkumlarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga davlat organlari, jamoat tashkilotlari va boshqa mutasaddi idoralar vakillarini jalb qilishi, Ombudsmanning faoliyati bilan hamkorlikni amalga oshirishi mumkin. Mahkumlarning axloqiy-ma'naviy rivojiga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish, ozod bo'layotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash jarayonlariga keng jamoatchilikni jalb qilish ham muassasalar huquqlari qatoriga kiradi. Jazoni ijro etish muassasalari mahkumlarni boshqa hududlarga ko'chirishda ichki ishlar organlari bilan, ta'lim olish jarayonini yo'lga qo'yishda esa ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi. Ozod etilayotgan shaxslarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish, ularni ishga joylashtirish masalalarida mahalliy hokimliklardagi ijtimoiy moslashuv markazlari bilan



hamkorlik qilish vakolati ham berilgan. Mahkumlarning pensiya masalalarini hal qilishda Pensiya jamg'armasi bo'limlari bilan, tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha esa sog'liqni saqlash tizimi bilan birgalikda ishlash belgilangan. Muassasalar, shuningdek, nosog'lom turmush tarziga bog'liq kasalliklar, nogironlik darajasini aniqlash bo'yicha ekspertiza tashkil etish, xodimlar malakasini oshirish, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi faoliyatining moddiy bazasini mustahkamlash uchun investitsiya jalb etish huquqlariga ham ega. Ular qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlardan ham foydalanishi mumkin. Jazoni ijro etish muassasalari mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, o'z faoliyati bo'yicha zarur axborotni JIEDga taqdim etish, shuningdek, Nizomda belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'minlash majburiyatiga ega. Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish esa Ichki ishlar vazirligi tarkibidagi Probatsiya xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Bu tizim 2019-yilgacha Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi huzuridagi bo'linmalar tomonidan boshqarilgan. 2018-yil 7-noyabrda qabul qilingan PQ-4006-son qaror asosida Probatsiya xizmati mustaqil tuzilma sifatida shakllantirildi. Qarorga muvofiq, probatsiya bo'linmalari xodimlari mahkumlar sonidan kelib chiqib taqsimlanadi, bu bo'linmalar esa asosan ijtimoiy soha, pedagogika va profilaktika yo'nalishida tajribaga ega mutaxassislar bilan to'ldiriladi. Rahbarlik lavozimlari kamida uch yillik tajribaga ega xodimlarga beriladi. Shuningdek, ichki ishlar organlarining malakali pensionerlari ham ushbu sohada faoliyat yuritishi mumkin. Qaror bilan Probatsiya xizmatini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilib, uning mablag'lari probatsiya xodimlarini rag'batlantirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, psixolog-mutaxassislarni jalb etish, mahkumlarning kasbiy tayyorgarligi uchun zarur tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishi belgilandi.

2020-yil 14-fevraldagi Vazirlar Mahkamasining 84-son qaroriga muvofiq, probatsiya ostidagi shaxslarga ijtimoiy-huquqiy va psixologik yordam ko'rsatishda turli vazirlik va idoralar o'rtasida hamkorlik mexanizmi joriy etildi. Unga ko'ra:



1. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi nazorat ostida bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish, ularga kasb o'rgatish va bandligini ta'minlashni tashkil qiladi;

2. Sog'liqni saqlash vazirligi tibbiy ko'rik, davolash, reabilitatsiya jarayonlarini amalga oshiradi;

3. Oliy ta'lim vazirligi probatsiya amaliyotini ta'lim jarayoniga integratsiya qiladi;

4. Xalq ta'limi vazirligi voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha tarbiyaviy tadbirlarni kuchaytiradi;

5. Xotin-qizlar qo'mitasi probatsiya ostidagi ayollarni qo'llab-quvvatlaydi;

6. Yoshlar ittifoqi esa yoshlarga oid huquqiy va ijtimoiy ko'makni ta'minlaydi.

Ichki ishlar vaziriga Jamg'arma mablag'lari hisobidan probatsiya bo'linmalarining qo'shimcha shtatlarini joriy etish, psixologlarni shartnoma asosida jalb etish, bo'sh mablag'larni tijorat banklarida saqlash va xodimlar uchun rag'batlantiruvchi ustamalar belgilash vakolati berilgan. Jamg'arma mablag'lari probatsiya tizimini rivojlantirish va xodimlarni rag'batlantirishga yo'naltiriladi.

Boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etuvchi muassasalar va organlar

Jinoyat qonunchiligi liberallashtirilayotgan hozirgi davrda sudlar jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan, jinoyatning turi, uning ijtimoiy xavfi, shaxsning individual xususiyatlari, shuningdek jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga olgan holda, tobora ko'proq jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni qo'llamoqda. Shuningdek, jinoyat javobgarligidan yoki jazodan ozod etish amaliyoti kengaymoqda. Bu jarayon odil sudlov tizimining qay darajada samarali ishlayotganining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shartli hukmning ahamiyati shundaki, mazkur jazo turiga hukm qilingan shaxslar jamiyatdan chetlashtirilmaydi. Natijada ular oilasi bilan birga bo'lishni davom ettiradi, mehnat faoliyatidan ajramaydi va davlat oldidagi moliyaviy majburiyatlarini



bajarishda davom etadi. Shu bois shartli hukm va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini qo'llash jinoyat sodir etgan shaxsning jamiyatga qayta moslashishiga va ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi. Boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarga quyidagilar kiradi: shartli hukm qilish; tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash; voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralarini belgilash.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 15-moddasiga ko'ra, mazkur ta'sir choralarini amalda qo'llaydigan organlar quyidagicha belgilanadi:

1. Shartli hukm qilinganlarni nazorat qilish

Oddiy fuqarolar bo'yicha – ichki ishlar organlari; Harbiy xizmatchilar bo'yicha – ular xizmat qilayotgan harbiy bo'linma yoki muassasa qo'mondonligi.

2. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini ijro etish

Bu chora ruhiy holati buzilgan yoki alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlik kabi kasalliklarga chalingan shaxslarga nisbatan qo'llanadi. Agar shaxs ozodlikdan mahrum etilmagan bo'lsa – sog'liqni saqlash tizimidagi maxsus tibbiyot muassasalari; Agar shaxs ozodlikdan mahrum etilgan bo'lsa – jazoni ijro etish muassasalarining tibbiy bo'limlari hamda ixtisoslashgan shifoxonalar.

3. Voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralarini ijro etish

Jabrlanuvchidan uzr so'rash yoki yetkazilgan zararni qoplash majburiyati – sud tomonidan belgilanadi; Maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish – xalq ta'limi organlari tomonidan amalga oshiriladi.

2019-yil 29-maydagi PQ-4342-son Prezident qaroriga asosan, respublikadagi ayrim mavjud maxsus kollej va maktab-internatlar negizida:

Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasi (Sirdaryo viloyati),

Respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasasi (Toshkent viloyati)

tashkil etilgan. Mazkur muassasalarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash:

o'g'il bolalar uchun – Milliy gvardiya,

qiz bolalar uchun – Ichki ishlar vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

Xalq ta'limi vazirligi esa mazkur o'quv-tarbiya muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonining sifatli tashkil etilishi, bolalarning bo'sh vaqtining mazmunli



tashkil etilishi, ularning jismoniy, aqliy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish bo'yicha mas'uldir.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga binoan, mamlakatimizda demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi. Shu prinsiplar asosida insonning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Barcha demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoyalangan. 26-modda esa jinoyatda ayblanayotgan har bir shaxsning sudda qonuniy tartibda va oshkora ko'rib chiqilishi, aybi isbotlanmaguncha u aybdor hisoblanmasligini belgilaydi. Sud jarayonida ayblanuvchiga o'zini himoya qilish imkoniyati yaratiladi. Hech kimga qiynoqlar qo'llash, zo'ravonlik, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi ta'sirlar o'tkazish taqiqlanadi. Shuningdek, shaxsning rozilgisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas. Davlat organlari jazolar va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etuvchi muassasalarning faoliyatini qonunchilikda belgilangan tartibda nazorat qiladi (JIK 16-moddasi).

Jazolarni ijro etishdagi nazorat organlari:

JIK 17-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar jazolar ijrosida qonuniylikni nazorat qiladi.

JIK 18-moddasiga binoan, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) va Prezident huzuridagi Tadbirkorlik subyektlari vakili jazoni ijro etuvchi muassasalarga erkin kirish huquqiga ega.

Bu organlar jinoiy jazolar va boshqa jinoyat-huquqiy choralari ijrosida qonuniylikni ta'minlash, shuningdek fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha mas'uldir.

Prokuratura nazorati:

2001-yil 29-avgustda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi qonunga ko'ra, prokuratura organlari jinoiy jazolar va boshqa ta'sir choralari ijro etish jarayonida qonuniylikni nazorat qiladi.



Asosiy vazifalari: qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat va jamiyat manfaatlarini qo'riqlash, huquqbuzarlikning oldini olish.31-moddaga binoan, prokurorlar ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar, mahkumlar va voyaga yetmaganlarning maxsus o'quv-tarbiya muassasalaridagi shaxslarning huquqlari buzilmaganini ta'minlash, qonunlarga zid jazo va intizomiy choralarni bekor qilish, sudga iltimosnoma yuborish kabi vakolatlarni amalga oshiradi.Prokurorlar, shuningdek, mahkumlarga ruhiy, jismoniy yoki psixologik ta'sir ko'rsatilishining oldini olish va intizomiy jazo qo'llanilishining qonuniyligini majburiy tekshirishga mas'uldir.

Ombudsman nazorati:

2004-yil 27-avgustdagi qonunga binoan, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) davlat organlari, korxona va muassasalarda inson huquqlari va erkinliklari qonunchiligiga rioya qilinishini parlament nazorati orqali ta'minlaydi.Mahkumlar bilan bog'liq turli media faoliyatlari (foto, video, intervyu) faqat yozma rozilik asosida va jazoni ijro etuvchi muassasa ruxsati bilan amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi
3. Jinoyat-ijroiya huquqi : darslik S.Niyozov, K,Hakimov, D.Israilov, Sh.Xaydarov, Z.Shamsiddinov. – T.: TDYU nashriyoti, 2024 – 215 b.
4. Jinoyat-ijroiya huquqi: Darslik //Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU, 2018. 275-bet
5. Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. B.J.Axrarov. – T.: Adolat nashriyoti, 201